

# PEDAGOGIK AMALIYOT

*Tibbiy oliy ta'lim muassasalari o'qituvchi va  
talabalari uchun o'quv metodik qo'llanma*

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH  
VAZIRLIGI

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI

Rahmonova Yo.R., Qilicheva K.Yu., Abdukaxarova M.F.,  
Saydullayev A.N., Iskandjanova F.K., Komilova M.O.

720000 – “SOG‘LIQNI SAQLASH” SOHASI

BAKALAVRIYAT YO‘NALISHI ASOSIDAGI

## **“PEDAGOGIK AMALIYOT”**

Tibbiy oliy ta‘lim muassasalari o‘qituvchi va o‘quvchilari uchun  
o‘quv metodik qo‘llanma

TOSHKENT – 2019

## ANNOTATSIYA

Ushbu dastur quyidagilarni o'z ichiga oladi:

kirish qismi Tibbiy pedagogika, Tibbiy biologiya, OMX fakultetlarida pedagogik amaliyot kursining maqsad va vazifalari, talabalarda ko'nikma va malakalarini shakllantirish va pedagogik amaliyotni olib borish usullari, ularni nazoratlashdan iborat;  
ma'ruza mazmuniga mos pedagogik mashg'ulotlar mavzulari berilgan;  
o'quv yuklamasi hajmi va ularning turlariga ko'ra pedagogik mashg'ulotlar tahlili;  
talabalarning ko'nikma va amaliy malakalarini joriy va yakuniy nazorat orqali baholash talablari.

Tuzuvchilar: Pedagogika va psixologiya kafedrası  
Dotsent: Yo. R. Rahmanova

Taqrizchilar: Oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limini rivojlantirish markazining yetakchi ilmiy hodimi f.f.d. professori  
Ziyomammedov B. G.

Oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limini rivojlantirish markazining bo'lim boshlig'i, pedagogika fanlari doktori, professor Tojiyev M. M.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni  
Saqlash Vazirligi  
Toshkent Tibbiyot Akademiyasi

Malakaviy pedagogik amaliyot uchun

**KUNDALIK – HISOBOT**

Тошкент Tibbiyot Akademiyasi Тиббий  
педагогика, Тиббий биология, Oliy ma'lumotli  
hamshira fakulteti talabalari uchun

Fakultet \_\_\_\_\_

Kafedra \_\_\_\_\_

Talaba \_\_\_\_\_

Kurs \_\_\_\_\_

Mutaxassisligi \_\_\_\_\_

Mazkur malakaviy pedagogik amaliyot uchun kundalik hisobot, Pedagogika va psixologiya kafedrasida, katta o'qituvchilari: Rahmonova Yo.R., Qilicheva K.Yu., Abdulkaxarova M.F., Saydullayev A.N., Iskandjanova F.K., Komilova M.O. tomondan yozildi. Toshkent Tibbiyot Akademiyasi ijtimoiy – gumanitar fanlar siklopredmet seksiyasining 2018-yil 18-martda 2-sonli majlisida mukammal qilinib, nashrga tavsiya etildi.

Тошкент тиббиёт академияси Педагогика ва психология кафедрасида ўқитиладиган “Малакавий педагогик амалиёт” фанидан талабалар билимини назорат қилиш ва баҳолашнинг рейтинг тизими тўғрисида

## НИЗОМ

Мазкур Низом Ўзбекистан Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги ва «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури тўғрисида»ги қонунларига ҳамда Ўзбекистан Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2001 йил 16 августдаги 343-сон «Олий таълимнинг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида»ги қарорига, Ўзбекистан Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг “Олий таълим муассасаларида талабалар билимини назорат қилиш ва баҳолашнинг рейтинг тизими тўғрисида”ги 2009 йил 11 июндаги 204-сонли, 2010 йил 25 августдаги 333-сонли, 2013 йил 13 декабрдаги 470-сонли ва 2014 йил 26 декабрдаги 14-сонли буйруқлари ва Низомларига, Тошкент тиббиёт академияси ректорининг 2016 йил 26 ноябр 400-сонли буйруғига мувофиқ Тошкент тиббиёт академияси Педагогика ва психология кафедрасида ўқитиладиган “Малакавий педагогик амалиёт” фанидан талабалар билимини назорат қилиш ва баҳолашнинг рейтинг тизимини тартибга солиди.

Ўқув жараёни модул тизимига асосланган ҳолда ташкил этилганда талабалар билимини назорат қилиш ва баҳолашнинг ўзига хос хусусиятлари Ўзбекистан Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги билан келишилган ҳолда белгиланиши мумкин.

### I. Умумий қоидалар

Талабалар билимини назорат қилиш ва рейтинг тизими орқали баҳолашдан мақсад таълим сифатини бошқариш орқали рақобатбардош кадрлар тайёрлашга эришиш, талабаларнинг фанларни ўзлаштиришида бўшлиқлар ҳосил бўлишини олдини олиш, уларни аниқлаш ва бартараф этишдан иборат.

Рейтинг тизимининг асосий вазифалари қуйидагилардан иборат:

а) талабаларда Давлат таълим стандартлари ва малака талабаларига мувофиқ тегишли билим, кўникма ва малакалар шаклланганлиги даражасини назорат қилиш ва таҳлил қилиб бориш;

б) талабалар билими, кўникма ва малакаларини баҳолашнинг асосий тамойиллари: Давлат таълим стандартларига асосланганлик, аниқлик, ҳаққонийлик, ишончлилик ва қулай шаклда баҳолашни таъминлаш;

в) фанларнинг талабалар томонидан тизимли тарзда ва белгиланган муддатларда ўзлаштирилишини ташкил этиш ва таҳлил қилиш;

г) талабаларда мустақил ишлаш кўникмаларини ривожлантириш, ахборот ресурслари манбаларидан самарали фойдаланишни ташкил этиш;

д) талабалар билимини ҳолис ва адолатли баҳолаш ҳамда унинг натижаларини вақтида маълум қилиш;

е) талабаларнинг фанлар бўйича комплекс ҳамда узлуксиз тайёргарлигини таъминлаш;

ж) ўқув жараёнининг ташкилий ишларини компьютерлаштиришга шароит яратиш.

Фанлар бўйича талабалар билимини семестрда баҳолаб бориш рейтинг назорати жадваллари ва баҳолаш мезонлари асосида амалга оширилади.

## **II. Назорат турлари ва уни амалга ошириш тартиби**

Назорат турлари, уни ўтказиш тартиби ва мезонлари кафедра мудири тавсияси билан олий таълим муассасасининг (факультет) ўқув-услубий кенгашида муҳокама қилинади ва тасдиқланади ҳамда ҳар бир фаннинг ишчи ўқув дастурида машғулот турлари билан биргаликда кўрсатилади.

Рейтинг назорати жадваллари, назорат тури, шакли, сони ҳамда ҳар бир назоратга ажратилган максимал балл, шунингдек жорий ва оралик назоратларнинг саралаш баллари ҳақидаги маълумотлар фан бўйича биринчи машғулотда талабаларга эълон қилинади.

Талабаларнинг билим савияси ва ўзлаштириш даражасининг Давлат таълим стандартларига мувофиқлигини таъминлаш учун қуйидаги назорат турларини ўтказиш назарда тутилади:

**жорий назорат** – талабанинг фан мавзулари бўйича билим ва амалий кўникма даражасини аниқлаш ва баҳолаш усули. Жорий назорат фаннинг хусусиятидан келиб чиққан ҳолда, суҳбат, кундалик дафтарларни, дарс тахлили дафтарларини текшириш (шу жумладан конспектларнинг ҳам мавжудлигини текшириш) ва шу каби бошқа шаклларда ўтказилиши мумкин;

**яқуний назорат** – семестр якунида муайян фан бўйича назарий билим ва амалий кўникмаларни талабалар томонидан ўзлаштириш даражасини баҳолаш усули. Педагогика ва психология кафедрасида ўқитиладиган Малакавий педагогик амалиёт фанидан яқуний назорат асосан Тиббиёт коллежларида ўтказилган амалиёт натижаларига кўра оғзаки шаклда ўтказилади.

Малакавий педагогик амалиёт фанларининг хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда академия Кенгаши қарори асосида яқуний назоратлар бошқа шаклларда (оғзаки, тест ва хоказо) ўтказилиши мумкин.

Назорат турларини ўтказишда ҳолисликни таъминлаш мақсадида талабалар тўғрисидаги маълумотлар уларнинг назорат ишларига кафедра томонидан махсус идентификация коди кўйилиб, факультет муҳри билан тасдиқланган бўлиши лозим.

Академия ректорининг буйруғи билан ички назорат ва мониторинг бўлими ёки ўқув-услубий бошқарма раҳбарлигида тузилган комиссия ҳамда ТТА академик лицей ва коллежлар билан ишлаш бўлими, деканат, кафедра мудири иштирокида яқуний назоратни ўтказиш жараёни даврий равишда ўрганиб борилади ва уни ўтказиш тартиблари бузилган ҳолларда, яқуний назорат натижалари бекор қилинади ҳамда яқуний назорат қайта ўтказилади.

### III. Баҳолаш тартиби ва мезонлари\*

Талабаларнинг билим савияси, кўникма ва малакаларини назорат қилишнинг рейтинг тизими асосида талабанинг ҳар бир фан бўйича ўзлаштириш даражаси баллар орқали ифодаланади.

Ҳар бир фан бўйича талабанинг жорий, якуний назоратлари ва семестр давомидаги ўзлаштириш кўрсаткичи 100 баллик тизимда бутун сонлар билан баҳоланади.

Талабанинг малакавий педагогик амалиёт фани бўйича семестр давомидаги ўзлаштириш кўрсаткичи назорат турлари бўйича қуйидагича тақсимланади:

якуний назоратга - 50 балл;

жорий назоратга - 50 балл .

Педагогика ва психология кафедрасида талабалар билимини назорат қилиш ва баҳолаш тартибида битта машғулотдаги 100 балл қуйидагича тақсимланади: педагогик амалиёт усуллари таснифидан келиб чиқиб оғзаки сўровга 50 балл, мустақил ҳолда тайёрлаган ўқув услубий ишланмалар учун 50 балл.

Педагогика ва психология кафедрасида якуний назорат битта босқичда оғзаки ўтказилади. Якуний назоратга 50 балл ажратилади ва 100 баллик тизимда баҳоланиб 55 балл ўтиш бали этиб белгиланади.

Талабанинг рейтинг дафтарчаси ёки талабалар рейтингини ҳисобга олиш Малакавий педагогик амалиёт бўйича якуний давлат аттестациясидаги ўзлаштириш даражаси - 100 баллик тизимда баҳоланади.

Талабанинг фан бўйича ўзлаштириш кўрсаткичини назорат қилишда қуйидаги намунавий мезонлар тавсия этилади:

а) 86 - 100 балл учун талабанинг билим даражаси қуйидагиларга жавоб бериши лозим:

- хулоса ва қарор қабул қилиш;
- ижодий фикрлай олиш;
- мустақил мушоҳада юрита олиш;
- олган билимларини амалда қўллай олиш;
- моҳиятини тушуниш;
- билиш, айтиб бериш;
- тасаввурга эга бўлиш;
- мустақил ҳолда дарс бера олиш;
- ўқув-услубий ишланмаларнинг мавжудлиги.

б) 71 - 85 балл учун талабанинг билим даражаси қуйидагиларга жавоб бериши лозим:

- мустақил мушоҳада юрита олиш;
- олган билимларини амалда қўллай олиш;
- моҳиятини тушуниш;
- билиш, айтиб бериш;
- тасаввурга эга бўлиш;
- ўқув-услубий ишланмаларнинг мавжудлиги.

в) 55 - 70 балл учун талабанинг билим даражаси куйидагиларга жавоб бериши лозим:

- моҳиятини тушуниш;
- билиш, айтиб бериш;
- тасаввурга эга бўлиш;
- ўқув-услубий ишланмаларнинг мавжудлиги.

г) куйидаги холларда талабанинг билим даражаси 0 - 54 балл билан баҳоланиши мумкин:

- аник тасаввурга эга бўлмаслик;
- билмаслик;
- ўқув-услубий ишланмаларнинг мавжуд эмаслиги ёки тўлиқ юритилмаганлиги.

Намунавий мезонлар асосида Педагогика ва психология кафедрасидаги Малакавий педагогик амалиёт фанларидан жорий ва якуний назоратлар бўйича аниқ мезонлар ишлаб чиқилиб, кафедра мудири томонидан тасдиқланади ва талабаларга эълон қилинади.

Талабаларнинг ўқув фани бўйича мустақил иши жорий ва якуний назоратлар жараёнида тегишли топшириқларни бажариши ва унга ажратилган баллардан келиб чиққан холда баҳоланади.

Талабанинг фан бўйича бир семестрдаги рейтинг куйидагича аниқланади:

$$R_f = \frac{V \times O^1}{100}, \text{ бу ерда:}$$

V — семестрда фанга ажратилган умумий ўқув юкламаси (соатларда);

O<sup>1</sup> — фан бўйича ўзлаштириш даражаси (балларда).

Фан бўйича жорий ва якуний назоратларнинг ҳар бирига ажратилган баллнинг 55 фоизи саралаш балл этиб белгиланади ва бунда жорий назоратга ажратилган баллнинг 55 ва ундан юқори фоизидаги баллни туپлаган талабалар ушбу фан бўйича якуний назоратга киритилади.

Педагогика ва психология кафедрасида малакавий педагогик амалиётга қатнашмаган талабалар учун мувзун қайта топшириш белгиланган муайян кунларда кафедра профессор-ўқитувчилари (ҳар бир фан бўйича профессор-ўқитувчининг ўзи) ва бириктирилган тиббиёт коллежларидан масъуллар томонидан тиббиёт коллежида қабул қилиниб, қайта топшириш натижаси шу куннинг ўзидаёқ талабага маълум қилинади. Қайта топшириш натижаси талабанинг кундалик дафтарига топширган санаси ва ўқитувчи имзоси билан белгиланади ҳамда кафедрада мавжуд фан бўйича “Қайта топшириш журнали”га қайд қилинади.

Талабанинг семестр давомида фан бўйича тўплаган умумий балли ҳар бир назорат туридан белгиланган қоидаларга мувофиқ тўплаган баллари йиғиндисига тенг.



#### IV. Назорат турларини ўтказиш муддати

Якуний назорат турлари календарь тематик режага мувофиқ деканат ёки ўқув бўлими (ўқув-услубий бошқарма) кафедра томонидан тузилган рейтинг назорат жадваллари асосида ўтказилади. Якуний назорат малакавий педагогик амалиётнинг охириги кунда кафедрада махсус тузилган хайъат комиссияси аъзолари иштирокида ўтказилади.

Жорий назоратда саралаш баллидан кам балл тўплаган, узрли сабабларга кўра якуний назоратда қатнаша олмаган талабага қайта топшириш учун, шу курснинг барча гуруҳларида малакавий амалиётлар ва барча гуруҳларда шу фан якуний назорат тугагандан сўнг тиббиёт коллежларида ўтказилади.

Касаллиги сабабли амалиётга қатнашмаган ҳамда белгиланган муддатларда жорий ва якуний назоратларни топшира олмаган талабаларга факультет декани фармойиши асосида, ўқишни бошлаганидан сўнг икки hafta муддатда қайта топширишга рухсат берилади. Қайта топшириш махсус жадвал асосида тиббиёт коллежларида амалга оширилади.

Семестр якунида амалиёт бўйича жорий ва якуний назорат турларининг ҳар бири бўйича саралаш баллидан кам балл тўплаган талаба академик қарздор ҳисобланади.

Академик қарздор талабаларга семестр тугаганидан кейин (баҳорги семестр натижалари бўйича эса, талабаларнинг ёзги таътили ҳамда профессор-ўқитувчиларнинг меҳнат таътилидан сўнг) қайта ўзлаштириш учун бир ой муддат берилади. Шу муддат давомида фанни ўзлаштира олмаган талаба факультет декани тавсиясига кўра белгиланган тартибда ректорнинг буйруғи билан талабалар сафидан четлаштирилади.

Талаба назорат натижаларидан норози бўлса, амалиёт бўйича назорат тури натижалари эълон қилинган вақтдан бошлаб бир кун мобайнида факультет деканига ариза билан мурожаат этиши мумкин. Бундай ҳолда факультет деканининг тақдимномасига кўра ректор буйруғи билан 3 (уч) аъзодан кам бўлмаган таркибда апелляция комиссияси ташкил этилади. Апелляция комиссияси талабаларнинг аризаларини кўриб чиқиб, шу куннинг ўзида хулосасини билдиради.

Баҳолашнинг ўрнатилган талаблар асосида белгиланган муддатларда ўтказилиши ҳамда расмийлаштирилиши факультет декани, кафедра мудирини, ўқув бўлими ҳамда ички назорат ва мониторинг ҳамда ТТА академик лицей ва коллежлар билан ишлаш бўлими томонидан назорат қилинади.

#### V. Рейтинг натижаларини қайд қилиш ва таҳлил этиш тартиби

Талабанинг амалиёт бўйича назорат турларида тўплаган баллари семестр якунида рейтинг қайдномасига бутун сонлар билан қайд қилинади. Рейтинг дафтарчаси ёки талабалар рейтингини ҳисобга олиш электрон тизимининг «ўқув режасида ажратилган соат» устунига семестр учун фанга ажратилган умумий ўқув юклама соатлари, «Фандан олинган баҳо» устунига эса 100 баллик тизимдаги ўзлаштириши қўйилади.

Талабанинг саралаш баллидан паст бўлган ўзлаштириши рейтинг дафтарчасига қайд этилмайди.

Амалиёт бўйича ўтказиладиган назорат турларининг натижалари гуруҳ журнали ҳамда қайдномада қайд этилади ва шу куннинг ўзида талабалар эътиборига етказилади.

Яқуний назорат натижаларига кўра амалиёт ўқитувчиси талабаларнинг фан бўйича рейтингини аниқлайди ҳамда рейтинг дафтарча ва қайдноманинг тегишли қисмини тўлдирди.

Талабалар рейтингини ҳисобга олиш электрон тизими жорий этилган тақдирда талабаларнинг фан бўйича рейтинг рейтинг қайдномаси ва ушбу тизимга қайд этилади.

Талабанинг рейтинг унинг билими, кўникмаси ва малакалари даражасини белгилайди. Талабанинг семестр (курс) бўйича умумий рейтинг барча фанлардан тўпланган рейтинг баллари йиғиндиси орқали аниқланади.

Талабалар умумий рейтинг ҳар бир семестр ва ўқув йили яқунлангандан сўнг эълон қилинади.

Диплом иловаси ёки академик маълумотномани деканат томонидан расмийлаштиришда фан бир неча семестр давом этган бўлса, рейтинглар йиғиндиси олинади.

Талабага имтиёзли диплом белгилашда унинг ҳар бир семестр якунидаги фанлар бўйича ўзлаштириш кўрсаткичи ҳисобга олинади.

Талабаларнинг назорат турлари бўйича эришган натижалари кафедралар, деканатлар ва ўқув-методик бўлинмаларда компьютер хотирасига киритилиб, мунтазам равишда таҳлил килиб борилади.

Жорий ва яқуний назорат натижалари кафедра йиғилишлари, факультет ва академия Илмий кенгашларида мунтазам равишда муҳокама этиб борилади ва тегишли қарорлар қабул қилинади.

## **VI. Яқуний қондалар**

Ўзбекистан Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Ўзбекистан Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Давлат тест маркази ҳамда ТТА ўқув бўлими, кафедра мудирлари тест баҳолари ва рейтинг балларининг ҳолислигини текширишни ташкил этади ва назорат қилади.

Ушбу Низомда белгиланган масалалар бўйича келиб чиққан низолар қонун ва шунга доир меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар асосида ҳал қилинади.

## ишчи дастур

### КИРИШ

”Замон талабларига мос мутахассис тайёрламочки эканмиз, биринчи навбатда ўқув юртаримизни шакли, қиёфаси ва таркиби, моддий базаси ҳам замонавий бўлиши керак” деган эди. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримов Шундай экан, истиклолдан кейин таълим жараёнида қўлланилиб келинаётган таълим бериш ва тарбиялашнинг восита ҳамда услублари тизимига ўзбек халқининг ўзига хос хусусиятларини, муомала маданиятини, қадрият ва маънавият дурдоналарини киритмасдан туриб, олий таълимда самарадорлигини ошириш, уни такомиллаштириш, шарқона тарбия назариясини талабалар онгига сингдириш мумкин эмаслиги долзарб вазифалардан биридир.

Ўзбекистон Республикасидаги таълим ислохотининг асосий вазифаларидан бири замонавий таълим-тарбияни йўлга қўйишда ёшларни касб-ҳунарга ўргатиш, ўз истаги ва хохишига қараб касб танлаш, бутун ҳаёти давомида ўз касбга садоқатли бўлиш ҳисларини шакллантиришдан иборатдир. Шунга кўра “Малакавий педагогик амалиёт” фани дастури асосида юксак ва самарали таълим жараёнини ташкил этиб, малакали рақобатбардош мутахассис кадрлар тайёрлаш давлат олдидаги асосий масала ҳисобланади. Ушбу дастурда “Малакавий педагогик амалиёт” курсининг фанлар тизимида тутган ўрни, мазмуни, мақсад ва вазифалари, касб-ҳунар таълимнинг давлат таълим стандарти, ўқув жараёнида ўқитиш воситалари, замонавий педагогик ва инновацион технологиялар, вазифалари ва унинг имкониятлари батафсил кўрсатиб ўтилган.

#### Фаннинг мақсад ва вазифалари

Мазкур фанни ўқитишнинг асосий мақсади булғуси бакалаврларда малакавий педагогик амалиётнинг методологик асослари ва тамойиллари ва ўқитиш жараёнини ташкил этиш, ҳамда касбий фаолиятни ташкил этиш, талабаларни касбга йуналтиришга оид кўникмаларни шакллантиришдан иборатдир. Булардан ташқари “Малакавий педагогик амалиёт” фанининг асосий мақсадлари; талабаларда Республикамизда комил инсонни вояга етказишнинг бир бутун ҳолатдаги муаммоларини ҳал қилиш; таълим-тарбия самарадорлигини тинмай ошириш ва уни дунё талаблари даражасига олиб чиқиш, касбий мутахассислика ижодий ёндашиш; умуминсоний қадрият ва миллий маданиятнинг асосларини эътиборга олиб, таълим-тарбия мазмунини, миллий мафқурани шакллантириш ва касбига садоқатли ёндашиш имконини яратиш ва “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури” бўйича назарий ва амалий билимларни шакллантиришдан иборат.

## **“Малакавий педагогик амалиёт” фанининг вазифалари эса куйидагилардан иборат:**

- Республикамиздаги мавжуд тиббиёт коллежлари учун етук мутахассисларни тайёрлаш;
- касб фаолиятининг истиқбол режа дастурларини ишлаб чиқиш;
- касб этикаси, муомала маданияти ва касб махоратини жаҳон стандартлари даражасидаги техника, технологиялар соҳасида билим ва кўникмалар талаблари даражасида амалга ошириш.
- комил инсонни таркиб топтиришнинг қонуният, қоида ва зарурий сифатларини аниқлаш;
- педагогикадаги таълим-тарбия назариясини ҳозирги давр хусусий методикаси билан узвийлик муаммоларини ишлаб чиқиш ва янги педагогик технология қонунларига амал қилиш;
- таълим-тарбия назариясидаги қоида, қонун, тамойил, метод ва усулларини амалий ҳаёти билан боғлаб, бўлажак ўқитувчиларга ўргатиш;
- халқ таълимини бошқариш ва раҳбарлик масалаларини чуқур ўрганиб бўлажак ўқитувчиларни қандай тайёрлаш муаммоларини ҳал қилиш.
- умумий кадриятларга содиқлик;
- халқимизнинг маънавий меросини мустаҳкамлаш ва ривожлантириш;
- инсоннинг ўз имкониятларини эркин намоён қилиш малакаларини ўргатиш.

## **Фан бўйича талабаларнинг тасаввур, билим, кўникма ва малакаларига қўйиладиган талаблар**

Тиббиёт олий ўқув юртини тугатувчи мутахассис келажакда фақат тиббиёт коллежи, олий мактаб ўқитувчиси ёки умумий амалиёт врачигина бўлиб қолмасдан, маънавий интеллектуал етук шахс бўлиб етишишини таъминлаш учун ушбу дастур талабаларнинг мутахассислик ва касб тарбиясини педагогик, назарий методологик асосларини очиб бериш йўналишларини белгилаб бериш лозим. Шу сабабли ҳам талабалар мазкур курсни ўрганишда куйидаги:

- Малакавий педагогик амалиёт фанининг предмети, мақсади, вазифалари, касб таълимининг фалсафий методологик асослари, касб таълимининг илмий-методик моҳияти ва илмий тадқиқот методлари.
- касб таълими тамойиллари
- узлуксиз таълимни стандартлаштириш асослари ва Урта махсус, касб-хунар таълимининг таълим йўналишлари, мутахассисликлар ва касблар таснифлагичи мазмуни,
- тармок таълим стандарти асосида ишчи уқув режалари ва дастурлари,
- тиббий фанларни уқитиш шакллари ва методларни танлаш,
- тиббиёт коллежларида мутахассислик (тиббий) фанларини уқитишда назарий ва амалий машгулотларни режалаштириш босқичлари,
- дидактик восита турлари мазмуни, уларни ишлаб чиқиш ва унинг кулланилиши,
- тиббий фанлар бўйича уқувчиларнинг билим, кўникма ва малакаларини баҳолаш,

- дарс турлари ва унга куйилган асосий талаблар тўғрисида тасаввурларга эга булиши;
- касб таълими тамойиллари ва уларни ўқув жараёнига тадбиқ этиш,
- урта махсус, касб-хунар таълимининг таълим йўналишлари мутахассисликлар ва касблар таснифлагичидан фойдалана олиш,
- тармок таълим стандарти асосида ишчи ўқув режалари ва дастурлар ишлаб чиқиш методикаси,
- тиббий фанлар дарсларини таҳлил қилиш,
- тиббий фан бўйича ишчи ўқув дастурларни, тақвим-мавзу режасини ишлаб чиқиш,
- тиббий фанларни ўқитиш шакллари ва методларини танлаш, амалга ошириш технологиясини ишлаб чиқиш,
- дидактик воситаларни ишлаб чиқиш ва уларнинг қўлланилиши,
- тиббий фанлар бўйича укучиларнинг билим, куникма ва малакаларини баҳолаш пакетларини ишлаб чиқиш,
- тиббий фанлар дарсларини таҳлил қилиш ва кузатилган дарсларни расмийлаштириш, ишлаб чиқиш ва улардан фойдалана олиши;
- талабаларни ўқув фаолиятини бошқаришга ўргатиш;
- яхлит педагогик жараёндаги замонавий дидактик тизимларни аниқлаш;

#### **Фаннинг ўқув режадаги бошқа фанлар билан ўзаро боғлиқлиги ва услубий жиҳатдан узвийлиги**

“Малакавий педагогик амалиёт” фани бакалаврият йўналишида таҳсил олаётган тиббий педагогика факультети талабалари учун ихтисослик фани ҳисобланади. Шу туфайли талабалар, “Педагогика” “Психология”, “Касбий психология”, “Фалсафа”, “Социология”, “Этика”, “Эстетика”, “Одам анатомияси ва физиологияси” каби фанлардан билим ва кўникмаларга эга бўлиш талаб этилади.

Мазкур фан айниқса, “Педагогика”, “Психология”, “Педагогик психология”, “Касбий педагогика”, каби фанлар билан ўзаро ҳамкорликда ўрганилади. Шунингдек, бу фан ўқув режадаги умумметодологик мутахассислик ва танлов фанлари ҳамда талабаларнинг илмий фаолияти билан узаро алоқадорликка ўрганилади.

#### **Фаннинг илм-фан ва ишлаб чиқаришдаги ўрни**

Мазкур фан талабаларнинг миллий мафкура тарбияси, ўқитувчилик касбига қўйилган асосий талаблар, педагогик бурчи, мажбуриятлари, талабалар шахсига қўйиладиган талаблар ва уларнинг таълим жараёнидаги бурчлари, касбий таълимининг назарий ва амалий асослари ҳақидаги билимлар билан куроллантириш вазифасини бажаради

Ушбу ишчи дастур 5111000- Касб таълими (5510100 – даволаш иши) бакалавр йўналишларида ўқитиладиган бўлажак тиббиётчи-педагогларнинг келгуси фаолият жараёнларини яъни, тиббиёт коллежлари, ва олий таълим муассасаларида педагогик жараённинг объектив талабларини ҳисобга олган ҳолда муаммоларни қўя билиш,

уларни ечиш, ўқувчиларни тарбиялаш ва ўқув жараёнларига хос бўлган қарама-қаршиликларни ҳал эта олиш ва ижодий изланувчанликни қўллаган ҳолда ечимини топиш – буларнинг ҳаммаси биргаликда замонавий ўқитувчи ва тарбиячининг касб фаолиятидаги ўзига хос тавсифни ташкил қилади. Педагогик жараён давомида талабалар тиббиётга оид билимларни, ақлий қобилиятлари ҳосил бўлиш жараёнларида ва ўқитувчи ижодий таҳлилларида янги педагогик ҳолатнинг ўзига хослигини намоён қилишни талаб қилади.

### **Фанни ўқитишда замонавий ахборот ва педагогик технологиялар**

“Малакавий педагогик амалиёт” фани буйича машғулотлар жараёнида талабаларга янги, илғор педагогик технологиялардан ва ахборот технологияларидан қўлланилган ҳолда билимлар берилади, малака ва кўникмалар шакллантирилади.

Бугунги олий ўқув юрти, ўрта махсус ва касб-хунар таълими педагогининг фаолиятида ўқув-тарбиявий жараёни режалаштириш, кунлик янгиликлар билан бойитиб бориши ва изланиши, янгилик яратишда вужудга келадиган жуда кўпгина мураккаб масалаларни ҳар куни ҳал этилишини талаб этади. “Малакавий педагогик амалиёт” фанида фанга доир дарслик, ўқув ва услубий қўлланмалар, маъруза матнлари, тарқатма материаллар, электрон материаллар, аудиовизуал воситалар, идрокни оширадиган феноменлардан фойдаланиш, ўқитишнинг фаол шакллари ва ҳар хил усулларида фойдаланилади.

Шунингдек, тиббий фанлардан дарс берадиган бўлажак тиббиётчи - педагоглар, тарбиячилар ҳозирда ҳар қайси ижодкор ўқитувчи ўзининг меҳнати ҳамда ўқув-тарбиявий жараёнларини бутунлигича такомиллаштириш ва объектив таҳлил қилиш учун татбиқ этадиган, билим ва кўникмаларга асосланган татқиқотлар тизими билан қуролланмоғи лозим.

## **АСОСИЙ ҚИСМ**

### **Фаннинг назарий машғулотлари мазмуни**

Фан бўйича курс иши ўқув режада кўзда тутилмаган

### **Талабаларнинг малакавий педагогик амалиётини ташкил этиш**

#### **бўйича асосий тавсиялар.**

Талабаларнинг малакавий педагогик амалиётини ташкил этиш бўйича кафедра профессор-ўқитувчилари томонидан кўрсатма ва тавсиялар ишлаб чиқилади. Унда талабалар куйи курсларда олган билим ва кўникмаларини амалий фаолият жараёнида янада бойитадилар. Шунингдек, дарслик ва ўқув қўлланмалар асосида талабалар билимларини мустақамлашга эришиш, тарқатма материаллардан фойдаланиш, илмий мақолалар ва тезисларни чоп этиш орқали талабалар билиминини ошириш, масалалар ечиш, мавзулар бўйича кўргазмаларни қуроллар тайёрлаш ва бошқалар тавсия этилади. Амалий машғулотларда талабалар ўқитувчи назорати остида расмлар, тарқатма материаллар ёрдамида мавзунини таҳлил қиладилар, ўқув услубий ишланмаларни мустақил тайёрлашни ўрганадилар.

### Амалий машгулотларнинг тахминий рўйхати

- Малакавий педагогик амалиёт ва уни ташкил этиш методикаси
- Тиббий олий ўқув юртларида ўтказиладиган малакавий педагогик амалиёт касб таълими тизимининг энг муҳим босқичи. Касб таълими фаолиятининг асосий тамойили бўлган ўқишни – педагогик амалиёт билан қўшиб олиб борилиши.
- Малакавий педагогик амалиёт ўқув ишлари билан боғлиқ бўлган фаолият тури. Кундалик дафтар ва уни юритиш. Ўқув услубий мажмуа ва таълим воситаларини тайёрлаш. Дарсларга кириш ва кузатиш. Коллеж структураси ва ходимларининг лавозим вазибалари.
- Таълимга оид асосий меъёрий ҳужжатлар. “Таълим туғрисида”ги қонун, “Кадрлар тайёрлаш миллий Дастури”, “Давлат таълим стандартлари” ва уларни тиббий таълимдаги аҳамияти. Тармок таълим стандарти асосида ўқув дастурлари ва ишчи ўқув режаларини ишлаб чиқиш методикаси.
- Тиббиёт коллежи структураси билан танишиш. Коллеж ходимларининг лавозим функционал вазибаларини билиш. Бириктирилган кафедра фаолиятини ўрганиш. Кафедра меъёрий ҳужжатлари билан танишиш.
- Тиббий фанларни ўқитиш шакллари ва методларини танлаш, уларни амалга ошириш технологияси. Таълим технологияси турлари, унинг асосий элементлари, интерфаол метод тушунчаси.
- Таълим мазмуни. Назарий ва амалий машгулотларни режалаштириш. Ўқув мақсадлари ва натижаларини белгилаш. Замонавий дарслар ва уларга қўйиладиган умумий дидактик талаблар.
- Дарсга оид асосий меъёрий ҳужжатлар. Дастур, дарслик ва ўқув режалари билан танишиш. Дарснинг технологик харитасини ишлаб чиқиш. Дарснинг хронологик харитаси. Касбий таълим дарс турлари ва унга қўйилган асосий талаблар.
- Тиббий фанлар бўйича дарсларни кузатиш ва таҳлил қилиш. Дарс кузатиш. Дарс таҳлили турлари. Дарс кузатиш ва уни таҳлил қилишга қўйиладиган педагогик ва психологик талаблар. Дарс таҳлили дафтари ва уни юритилиши.
- Дидактик воситалар ва уларни турлари. Ўқув дидактик материал ҳамда воситаларни тайёрлаш.
- Педагогик назорат. Назорат турлари. Педагогик тест ва унга қўйиладиган талаблар. Назарий ва амалий машгулотлар бўйича тест топшириқларини ишлаб чиқиш.
- Ўқув услубий ишланмалар тайёрлаш. Ўқув амалиёти, хона ва лабораторияларининг жиҳозланиши. Наъмунавий ўқув услубий ишланма ва уни тайёрлашга қўйиладиган умумий талаблар.
- Тиббиёт коллежларида илмий-услубий ишларни ташкил этиш методикаси
- Тиббиёт коллежларида маданий ва маърифий ишларни ташкил этиш методикаси
- Тиббиёт коллежида амалга оширган педагогик фаолиятини кундалик дафтарда акс эттириш.
- Багарилган ишлар бўйича ҳисобот тайёрлаш.

## **Талабаларнинг малакавий педагогик амалиётини ташкил этиш**

### **бўйича тавсиялар**

Талабаларнинг малакавий педагогик амалиётини ташкил этиш бўйича кафедра профессор-ўқитувчилари томонидан кўрсатма ва тавсиялар ишлаб чиқилади. Унда талабалар қуйи курсларда олган билим ва кўникмаларини амалий масалалар ечиш орқали янада бойтадилар. Шунингдек, дарслик ва ўқув қўлланмалар асосида талабалар билимларини мустақамлашга эришиш, тарқатма материаллардан фойдаланиш, илмий мақолалар ва тезисларни чоп этиш орқали талабалар билимини ошириш, масалалар ечиш, мавзулар бўйича кўргазмали қуроллар тайёрлаш ва бошқалар тавсия этилади.

### **Лаборатория машғулоти мавзулари**

Фан бўйича курс иши ўқув режада кўзда тутилмаган

### **Курс ишини ташкил этиш бўйича услубий кўрсатмалар**

Фан бўйича курс иши ўқув режада кўзда тутилмаган

### **Мустақил таълимнинг шакли ва мазмуни**

Талабаларнинг мустақил ишлари ҳар бир фанни бўлинмас қисми ҳисобланади. Бу ишда талабаларнинг фаолиятда репродуктив ва продуктивлиги, ҳар ҳил вазифаларни бажарилиши, билимларни ўзлаштириши, малакаларни ва кўникмаларни шакллантириш, мустақил ижодий фаолиятни ошириш, шахсий сифатларни ривожлантириш

### **Тавсия этилаётган мустақил ишларнинг мавзулари**

1. Замонавий тиббиёт коллежларида тиббий таълимнинг шакллари.
2. Маъруза ва амалий машғулотларни ишқил этиш методикаси.
3. Маъруза, амалий машғулотлар ва лаборатория ишларни ташкиллаштириш ва олиб бориш методикаси.
4. Назорат турлари, вазифаси ва қўллаш методикаси.
5. Клиник фанларни ўқитишда хусусий методикалар технологияси.
6. Ўқув меъёрий ҳужжатлар.
7. Намунавий ва ишчи дастурларнинг моҳияти, фарқи
8. Билим, кўникма ва малакаларни баҳолаш мезонлари яратиш методикаси.
9. Дарс таҳлилини олиб бориш методикаси
10. Тестлар тузиш методикаси.
11. Дарсга тайёргарликни текшириш мезонлари.
12. Дарсни лойхалаштириш технологияси

### **Мустақил бажариш учун топшириқлар**

1. Ўзингизнинг йўналишингизга мос тиббиёт коллежлари йўналишлари ўқув режасини таркибий қисмларини ва махсус фанларни ёзинг.



2. Тиббий таълимда замонавий дарсларга қандай дидактик талаблар қўйилади?
3. Тиббиёт коллежларида ўқув жараёнини лойиҳалашда қандай асосий талабларга амал қилиниши керак?
4. Билим-кўникма ва малакаларни баҳолашнинг аҳамияти ва моҳияти тўғрисида тушунча беринг.
5. Талабани касбга йўналтиришнинг аҳамияти тўғрисида тушунча беринг.
6. Замонавий тиббий таълим ўқитувчиси қандай жиҳатларга эга бўлиши керак?
7. Тиббиёт коллежларида илмий-услубий ишлар қандай ташкил этилади?
8. Тиббиёт коллежларида маданий-маърифий ишлар қандай ташкил этилади?

### **Дастурнинг инфор­мацион-услубий таъминоти**

Фанни ўқитиш жараёнида:

- амалий машғулотларда инновацион таълим технологияларидан, амалий иш ўйинларидан;
- таълимнинг замонавий усулларидан психологик тренинг ва интерфаол методлар, кластер методи, ақлий ҳужум методлари ҳамда ахборот коммуникация (электрон - дидактик, медиатаълим, амалий дастур пакетлари, презентация) технологияларидан фойдаланиш назарда тутилган.

### **Фойдаланиладиган адабиётлар рўйхати**

Асосий адабиётлар:

1. Каримов И. А.. “Баркамол авлод Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори”. Т. 1997 й.
2. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини ислоҳ қилиш буйича меъёрий ҳужжатлар I-қисм, Тошкент, 1998 йил
3. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини ислоҳ қилиш буйича меъёрий ҳужжатлар II-қисм, Тошкент, 1998 йил
4. Скакун В. А.. “Ишлаб чиқариш таълими устози учун кулланма”. Тошкент “Ўқитувчи” 1992 й.
5. Азизхўжаева Н.Н. “Педагогик технология ва педагогик маҳорат”. Тошкент, Низомий номидаги ТДПУ, 2003 й
6. Мирсаидов К. Ж.. “Махсус фанларни ўқитиш ва ишлаб чиқариш таълими”. Тошкент “Ўқитувчи” 1996 й.
7. Олимов К.Т., Абдуқуддусов О.А., Узоқова Л.П., Аҳмеджонов М.М., Жалолова Д.Ф.. Касб таълими услубиёти. Тошкент, 2006.
8. Мавлонова Р. Тўраева О.. Холиқбердиев К.. “Педагогика” “Ўқитувчи” - 2001 .
9. Нишонов А., Хайдаров Б ва бошқалар. Баҳолаш методлари. Тошкент. Осие тараққиёт банки. 2003. - 156 б.
